



UDK: 811.512.133'373.7

Sulurxan RAXIMOVA,
Urganch davlat pedagogika instituti dotsenti

F.f.d., DSc D.Xodjayeva taqrizi asosida

FRAZEOLIGIK BIRLIKLARNING KONTEKSTUAL SEMANTIKASI

Annotatsiya

Mazkur maqolada frazeologik birliklarning kontekstual semantikasi o'zbek tilshunosligi va zamonaviy frazeologik tadqiqotlar kesishgan nuqtada tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi frazeologik birlik ma'nosining nutqda qanday aktuallashtirishi, barqaror semantik invariant bilan matn ichida yuzaga keladigan variant semalar o'rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat. Ishda tavsifiy, komponent, kontekstual, funksional-pragmatik hamda lingvomadaniy yondashuvlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, frazeologik birlik ma'nosi faqat lug'aviy izoh bilan chegaralanmaydi, u yaqin matniy muhit, kommunikativ vaziyat, uslub, muallif niyati va madaniy presuppozitsiyalar ta'sirida qayta taqsimlanadi. Maqolada kontekstual semantikaning besh asosiy ko'rinishi ajratiladi: literal va idiomatik ma'no farqlanishi, emotsional-baholovchi kuchayish yoki susayish, pragmatik yo'naltirish, uslubiy qayta markazlashuv hamda variativ-transformatsion yangilanish. Olingan xulosalar frazeografiya, o'zbek milliy korpusini yaratish, badiiy matn talqini va frazeologiyani o'qitish amaliyoti uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Frazeologiya, frazeologik birlik, frazema, kontekstual semantika, idiomatik ma'no, semantik aktuallashtirish, lingvomadaniy yondashuv, diskurs, o'zbek tili, frazeografiya.

CONTEXTUAL SEMANTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Annotation

This article examines the contextual semantics of phraseological units at the intersection of Uzbek linguistics and contemporary phraseological studies. The aim is to determine how the meaning of a phraseological unit is actualized in discourse and how a stable phraseological invariant interacts with context-dependent semantic variants. The study applies descriptive, componential, contextual, functional-pragmatic, and linguocultural methods. The findings show that phraseological meaning cannot be reduced to dictionary glosses alone; it is redistributed through immediate textual environment, communicative situation, stylistic register, authorial intention, and cultural presuppositions. Five major forms of contextual actualization are identified: the distinction between literal and idiomatic meanings, emotional-evaluative intensification or attenuation, pragmatic reorientation, stylistic recentering, and transformational variation. The results are relevant for lexicography, corpus annotation, literary interpretation, and the teaching of phraseology.

Key words: Phraseology, phraseological unit, phraseme, contextual semantics, idiomatic meaning, semantic actualization, discourse, Uzbek language, linguocultural approach.

КОНТЕКСТУАЛЬНАЯ СЕМАНТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация

В статье контекстуальная семантика фразеологических единиц рассматривается на пересечении узбекского языкознания и современных фразеологических исследований. Цель работы состоит в выявлении того, каким образом значение фразеологической единицы актуализируется в речи и как соотносится устойчивый фразеологический инвариант и варианты семы, возникающие в тексте. В исследовании использованы описательный, компонентный и контекстуальный методы, а также функционально-прагматический и лингвокультурологический подходы. Результаты показывают, что значение фразеологической единицы не исчерпывается словарным толкованием: оно перераспределяется под воздействием ближайшего текстового окружения, коммуникативной ситуации, стиля, авторской интенции и культурных presupпозиций. В статье выделяются пять основных проявлений контекстуальной семантики: разграничение буквального и идиоматического значения, усиление или ослабление эмоционально-оценочной окраски, прагматическая направленность, стилистическая переакцентуация и вариативно-трансформационное обновление. Полученные результаты важны для фразеологии, создания национального корпуса узбекского языка, интерпретации художественного текста и практики преподавания фразеологии.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологическая единица, фразема, контекстуальная семантика, идиоматическое значение, семантическая актуализация, лингвокультурологический подход, дискурс, узбекский язык, фразеология.

Kirish. Frazeologik tizim tilning nominativ, ekspressiv va pragmatik imkoniyatlarini mujassam etadigan alohida qatlamdir. O'zbek tilshunosligida frazema ikki yoki undan ortiq leksemaning semantik-sintaktik birlashuvidan tashkil topgan, ko'chma ma'noli, turg'un va nutqda tayyor holda qo'llanadigan lug'aviy birlik sifatida talqin qilinadi [1]. Shu bois frazeologik birlik oddiy erkin so'z birikmasidan yaxlit ma'nosi va obrazliliigi bilan farq qiladi.

Zamonaviy korpus lingvistikasi va leksikografiya frazeologik birliklarning nutqda yakka holda emas, balki ustuvor sintagmatik naqshlar tarkibida faol ishlashini ko'rsatmoqda [5]. Shu bois frazemaning semantik salohiyatini faqat lug'atdagi ta'rif orqali emas, uning real diskursdagi xulqi orqali ham tavsiflash zarur.

Xalqaro tadqiqotlarda ham phraseology tushunchasining tor va keng doirada qo'llanishi, ma'no ko'pincha tayyor sintagmatik naqshlarda hosil bo'lishi

ta'kidlanadi [4]. Biroq shakliy turg'unlik semantik harakatsizlikni anglatmaydi. Mazkur maqolaning maqsadi frazeologik birliklarning kontekstual semantikasini yoritish, invariant ma'no bilan matnda yuzaga keladigan variant ma'no qatlamlari o'rtasidagi aloqani ko'rsatishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologik birliklar semantikasi va ularning nutqdagi funksional xususiyatlari tilshunoslikda uzoq yillardan beri o'rganib kelinayotgan dolzarb masalalardan biridir. O'zbek tilshunosligida bu yo'nalish, avvalo, frazeologik turg'un, ko'chma ma'noli va nutqda tayyor holda qo'llanuvchi birlik sifatidagi mohiyatini izohlash bilan shakllangan. Hasanboy Jamolxonov frazemani oddiy so'z birikmasidan farqlab, uning yaxlit semantik tuzilma ekanini ta'kidlaydi [1]. Sh.Rahmatullayevning frazeologik lug'ati esa o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning ma'no, variant va uslubiy xususiyatlarini tizimli ravishda jamlagani bilan muhimdir [2]. A.E.Mamatov ishlarida frazeologik birliklarning lingvomadaniy tabiati, milliy tafakkur va madaniy kod bilan bog'liqligi yoritilib, frazeologik semantikaning faqat lug'aviy emas, balki madaniy-mental asosga ega ekanini ko'rsatiladi [3].

Xalqaro tilshunoslikda phraseology tushunchasi kengroq doirada o'rganilgan bo'lib, unda idiomlar, kollokatsiyalar va boshqa turg'un birikmalar semantik hamda diskursiv birlik sifatida tahlil qilinadi. E.Autelli phraseology terminining tarixiy shakllanishini ko'rsatib, ushbu yo'nalishning nazariy chegaralari vaqt o'tishi bilan kengayganini qayd etadi [4]. M.Paquot esa korpus lingvistikasi va leksikografiya nuqtai nazaridan so'z va iboralarning nutqda barqaror sintagmatik modellar asosida ma'no hosil qilishini ta'kidlaydi [5]. Rosamund Moon tadqiqotlarida fixed expressions va idiomlarning real matndagi qo'llanishi, uslubiy xulqi va funksional yuklanishi alohida tahlil qilinib, frazeologik birlikni faqat lug'at izohi bilan tavsiflash yetarli emasligi asoslanadi [6].

Frazeologik ma'noning ichki tuzilishi va obrazli tabiati kognitiv yondashuvlarda ham keng o'rganilgan. D.Dobrovolskiy idiom semantikasini metafora, obraz va konseptual strukturalar bilan bog'laydi hamda frazeologik birliklarda ko'chma ma'no shakllanishining murakkab mexanizmlarini ko'rsatadi [7]. Psixolingvistik tadqiqotlarda esa idiomatik talqinning kontekstga sezgirligi tasdiqlangan. E.Holsinger idiomlarni idrok etishda sintaktik va kontekstual omillar birgalikda ishlashini ko'rsatadi [8]. A.Naciscione frazeologik obrazning diskursda takrorlanish, kengayish va transformatsiya jarayonlari orqali yangi semantik-uslubiy qirralar hosil qilishini tahlil qiladi [9]. So'nggi eksperimental ishlarda, xususan A.Lacroix va hammualliflar tadqiqotida idiomlar qo'llab-quvvatlovchi kontekstda tezroq va aniqroq anglashilishi qayd etilgan [10].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mavjud adabiyotlarda frazeologik birliklarning turg'unligi, ko'chma ma'noliligi, obrazlilik va lingvomadaniy xususiyatlari yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, ularning aynan kontekstual semantikasi, ya'ni invariant ma'no bilan nutqiy vaziyatda aktuallashadigan variant semalar o'rtasidagi munosabat masalasi o'zbek tilshunosligida maxsus va tizimli tarzda kamroq tadqiq etilgan. Shu jihatdan mazkur maqola o'zbek frazeologiyasini zamonaviy phraseology, diskurs tahlili, pragmatika va lingvomadaniyat

yondashuvlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot manba bazasini H.Jamolxonov, Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatovning ishlari hamda frazeologiya, diskurs, korpus lingvistikasi va idiom semantikasi bo'yicha xalqaro tadqiqotlar tashkil etdi [10].

Ishda tavsifiy, komponent, kontekstual, funksional-pragmatik va lingvomadaniy yondashuvlardan foydalanildi. Metodik jihatdan frazeologik birlik uch pog'onali modelda ko'rib chiqildi: 1) lug'aviy-invariant qatlam; 2) kontekst ta'sirida faollashadigan variant semalar; 3) diskursdagi pragmatik-funksional natija.

Tahlil va natijalar. Jamolxonov frazemani ko'chma ma'noli, turg'un qurilma sifatida tavsiflaydi va har qanday turg'un birikma frazema bo'lavermasligini ta'kidlaydi [1]. Demak, frazeologik ma'no komponentlar yig'indisiga teng emas; u til xotirasida yaxlit model sifatida saqlanadi.

Rahmatullayev lug'ati frazeologik birliklarning tarixiy, uslubiy va hududiy qatlamlarini kuzatish imkonini beradi [2]. Mamatov esa frazeologik birliklarda milliy-madaniy semantika idiomatik ma'no, tarkibiy komponentlar va prototiplar orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi [3]. Shuning uchun frazema obraz, baho va madaniy assotsiatsiyani birlashtirgan murakkab birlikdir.

Frazeologik birlikning lug'atdagi ma'nosi uning semantik yadrosini ifodalaydi, biroq matnda bu yadro turli ko'rinishda aktuallashadi. Kontekstual semantika deganda yaqin matniy muhit, sintaktik qurilish, uslub, kommunikativ maqsad va presuppozitsiya ta'sirida yuzaga keladigan aktual ma'no konfiguratsiyasi tushuniladi.

Moon frazeologik birlikni qo'llanish muhitisiz to'liq tavsiflash mumkin emasligini, Paquot esa ma'no ustuvor sintagmatik naqshlarda shakllanishini ko'rsatadi [5]. Psixolingvistik tajribalar ham idiomatik talqinning kontekstga sezgirligini tasdiqlaydi [8]. Shu asosda quyidagi model taklif qilinadi: frazeologik invariant + diskursiv muhit + kommunikativ niyat + madaniy presuppozitsiya = aktual semantik realizatsiya.

Frazeologik birliklarning kontekstual semantikasida besh asosiy ko'rinish kuzatiladi.

Birinchisi, literal va idiomatik ma'no o'rtasidagi farqlanishdir: ko'z yumdi birligi bir kontekstda literal, boshqa kontekstda "vafot etdi" ma'nosida idiomatik talqin qilinadi. Ikkinchisi, emotsional-baholovchi siljish bo'lib, og'zi qulog'ida kabi frazemalar turli matnlarda samimiy quvonchni ham, ironik munosabatni ham ifodalashi mumkin [1].

Literal va idiomatik ma'no o'rtasidagi farqlanish odatda subyektning semantik tipi, voqea maydoni va sintaktik qurilish bilan belgilanadi. Emotsional-baholovchi siljishda esa bir xil frazema ijobiy, salbiy yoki ironik rang olishi mumkin. Masalan, og'zi qulog'ida birligi samimiy quvonchni ham, kinoyali munosabatni ham ifodalashi mumkin [1].

Uchinchisi, pragmatik yo'naltirishdir: qo'li kalta birligi neytral tavsif, tanqid yoki hamdardlikni yuzaga chiqarishi mumkin. To'rtinchisi, uslubiy qayta markazlashuv bo'lib, bir xil frazema so'zlashuv, publitsistika va ilmiy matnda turli funksional markaz bilan ishlaydi. Beshinchisi, variativ-transformatsion yangilanishdir: kiprik qoqmaslik va mijja qoqmaslik kabi variantlar yoki muallifiy transformatsiyalar diskursda yangi semantik soya hosil qiladi [1].

Jadval 1. Frazeologik birlik kontekstual semantikasining asosiy mexanizmlari

Mexanizm	Semantik natija	Kontekst ko'rsatkichi	Namunaviy birlik
Disambiguatsiya	Literal yoki idiomatik ma'no tanlanadi	Yaqin matniy muhit, subyekt tipi	ko'z yumdi

Emotiv-baholovchi siljish	Ijoiy, salbiy yoki ironik bo'yoq siljiydi	Baholovchi leksemalar, janr	og'zi qulog'ida
Pragmatik yo'naltirish	Tanqid, hamdardlik yoki talab faollashadi	Nutq maqsadi, adresat munosabati	qo'li kalta
Uslubiy qayta markazlashuv	Ekspressiv yoki metalingvistik funksiya yuzaga chiqadi	Uslub va janr	boshi qotdi
Variativ-transformatsion yangilanish	Bazaviy ma'no saqlanib, yangi soya hosil bo'ladi	Muallifiy ishlov, takror, kengayish	kiprik qoqmaslik / mijja qoqmaslik

Jadvaldan ko'rinadiki, frazeologik birlikning aktual ma'nosi lug'aviy yadroning o'zi bilan emas, balki nutqiy vaziyatda faollashgan qo'shimcha semantik va pragmatik omillar bilan birga shakllanadi.

Lingvomadaniy yondashuv frazeologik birliklarda milliy madaniyatning muhim kodlari saqlanishini ko'rsatadi [3]. Non, dasturxon, yuz, ko'ngil, qo'l, ko'z kabi komponentlar ishtirok etgan frazemalarda ma'no oddiy tasvirdan tashqari axloqiy va ijtimoiy baholarni ham o'zida jamlaydi.

Masalan, dasturxonni ochiq birligi mehmondo'stlik va sahovatni, yuziga oyoq bosmoq esa hurmatsizlik bilan birga shaxs sha'niga tajovuz semasini yuzaga chiqaradi. Demak, bunday birliklarni keng madaniy kontekstdan uzib talqin qilish ma'noning muhim qatlamini yo'qotadi.

Badiiy matnda frazeologik birliklar obrazlilikni kuchaytiradi, personaj nutqini individuallashtiradi va psixologik holatni ixcham ifodalaydi. Naciscione phraseological image diskursda takrorlanish va kengayish orqali matnning semantik hamda uslubiy yaxlitligini ta'minlashini ko'rsatadi [9].

Publitsistik matnda esa frazemalar ko'proq baholash va ta'sirchanlik vazifasini bajaradi; ilmiy matnda esa ular tahlil obyektiga aylanadi. Shu sababli frazemaning real funksiyasini aniqlash uchun minimal misol emas, balki yetarli kontekst zarur [5].

Frazeologik birlikni faqat turg'un shakl sifatida tavsiflash uning dinamik semantik tabiatini to'liq ochib bera olmaydi. Turg'un shakl bilan harakatchan ma'no o'rtasidagi dialektika aynan kontekstda yaqqol ko'rinadi. Shu sababli frazema "tayyor, biroq diskursda qayta konfiguratsiyalanuvchi ma'no modeli" sifatida talqin qilinishi lozim.

Bu yondashuv frazeografiya, korpusshunoslik va o'qitish amaliyoti uchun muhimdir: lug'at maqolasida tipik kontekst va uslubiy markirovka berilishi, milliy korpusda frazemalar alohida anotatsiyalanishi, ta'lim jarayonida esa

ma'no siljishi va ironik qo'llanishlar amaliy misollar bilan tushuntirilishi kerak [2].

Shuningdek, bunday yondashuv tarjimashunoslik uchun ham muhimdir. Frazeologik birlikni boshqa tilga ko'chirishda faqat lug'aviy muqobilni tanlash yetarli emas; uning uslubiy, baholovchi va madaniy yukini ham hisobga olish kerak. Aks holda matndagi pragmatik ta'sir va obrazli qatlam yo'qoladi.

Xulosa. Frazeologik birliklarning kontekstual semantikasi ularni statik "tayyor iboralar" emas, balki diskursda ma'no hosil qiluvchi dinamik birliklar sifatida ko'rish zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilshunosligidagi klassik qarashlar [1] va zamonaviy xalqaro tadqiqotlar [4] bir nuqtada tutashadi: barqaror shakl aktual ma'noni to'liq belgilab bermaydi.

Tahlil natijasida kontekst frazeologik birlik semantikasini besh yo'l bilan boshqarishi aniqlandi: literal va idiomatik ma'noni farqlaydi, emotsional-baholovchi qirrani kuchaytiradi yoki susaytiradi, pragmatik yo'naltirishni belgilaydi, uslubiy markazni o'zgartiradi hamda variativ-transformatsion yangilanishga sharoit yaratadi.

Shunday ekan, frazeologik birlikning semantik portreti invariant yadro va kontekstda faollashuvchi variant qatamlardan iborat ko'p sathli tuzilma sifatida talqin qilinishi kerak. Bu yondashuv frazemaning izohlashda ham, uni matnda anglashda ham yuqori aniqlik beradi.

Frazeologik birliklarning kontekstual semantikasini chuqur tadqiq etish frazeografiya, milliy korpus, badiiy matn talqini va til o'qitish metodikasini boyitadi. Kelgusida korpusga tayangan empirik izlanishlar va janrlararo taqqoslashlar ushbu yo'nalishning amaliy imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Bu natijalar frazeologik birlikni nafaqat lug'aviy birlik, balki kommunikativ hodisa sifatida o'rganish lozimligini ko'rsatadi. Kontekstga tayangan tahlil semantik nozikliklarni aniqroq ochadi va frazemalarning real nutqdagi funksional imkoniyatlarini to'liqroq tavsiflashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

- Jamolxonov, H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013.
- Rahmatullayev, Sh. O'zbek tili frazeologik lug'ati. Toshkent – 2022.
- Mamatov, A.E. Zamonaviy lingvistik. Jizzax, 2019.
- Autelli, E. The origins of the term "phraseology". Yearbook of Phraseology, 2021.
- Paquot, M. Lexicography and phraseology. In: Biber, D., Reppen, R. (eds.). The Cambridge Handbook of English Corpus Linguistics. Cambridge University Press, 2015.
- Moon, R. Introduction and Background. In: Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach. Oxford University Press, 1998.
- Dobrovol'skij, D. The structure of metaphor and idiom semantics (a cognitive approach). In: Handl, S., Schmid, H.-J. (eds.). Windows to the Mind: Metaphor, Metonymy and Conceptual Blending. Berlin – New York: De Gruyter Mouton, 2011.
- Holsinger, E. Representing Idioms: Syntactic and Contextual Effects on Idiom Processing. Language and Speech, 2013, Vol. 56, Issue 3, pp. 373–394.
- Naciscione, A. Sustainability of Phraseological Image in Discourse. International Journal of English Studies, 2006, Vol. 6(1), pp. 43–56.
- Lacroix, A., Troles, N., Burgevin, M., Le Bescond, C., Laval, V., Noël, A. Involvement of Executive Functions in Idiom Comprehension: A Life-Span Perspective. Brain Sciences, 2024, 14(11), 1076.